

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Referat

Mavzu: Maxmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi

Bajardi: To'ychiyeva SH.

Toshkent-2016

REJA:

1. M. Behbudiyning hayoti va ijodi.
2. M. Behbudi – publitsist.
3. M. Behbudi – o'zbek dramaturgiyasining asoschisi.
4. M. Behbudi – davlat arbobi.

XX asr o'zbek adabiyotiva madaniyati tarixida Mahmudxo'ja Behbudi alohida o'rin tutadi.

Turkistonda yangi yo'nalishdagi publitsistika, dramaturgiya, teatr madaniyati, sahna san'atining tug'ilishi bevosita uning nomi bilan bog'liq.

Behbudi 1875-yilda Samarqandda tug'ilgan. U yoshligidanoq arab, fors, turk tillarini mukammal o'rgandi. Bolalikda unga tog'alar-muftiy Odil qori va qozi Muhammad Siddiqning ta'siri kuchli bo'ldi. Mahmudxo'ja qozi tog'asi yonida mirzolik qildi. O'z davrining peshqadam gazetasi "Tarjumon"ni muttasil o'qib bordi. Voyaga yetgach, o'zining ham muftiy darajasiga ko'tarilishida va faol ijtimoiy-siyosiy ishlar bilan mashg'ul bo'lishida bu muhit katta rol oynadi.

Asr boshida Behbudi Arabiston va Turkiya safarlarida bo'lishi, Orenburg, Qozon, Moskva, Peterburg shaharlariga borishi uning dunyo qarashida chuqur iz qoldirdi. Bu mamlakat va shaharlarda ta'lim-tarbiya, maorif sohasiga katta qiziqish bilan qaradi. Turkiston sharoitidan farqlanuvchi maktab, oliy ta'lim, matbuot, teatr ishlarini, jamiyatni boshqaruv tizimini imkon boricha yaqindan o'rganishga intildi.

Natijada zamon talabi va ijtimoiy ehtiyoj tufayli tug'ilgan "Bolalar uchun kitob", "Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi", "Aholi jo'g'rofiyasiga kirish" singari qo'llanmalarida uning shu davr marifatparvarlik g'oyalari namoyon bo'ladi.

Bolalarni millat ehtiyojlariga moslab o'qitishni orzu qilgan Samarqandda bir qator yangi usuldagi maktab ochadi. Xalqning dunyoqarashi, millat ongini yuksaltirishda matbuotning o'rni nihoyatda muhim ekanligini anglab "Samarqand" gazetasi va "Oina" jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ladi.

U o'zbek dramaturgiyasining asoschisidir.

Behbudiy o'zbek yozuvchilari ichida birinchilardan bo'lib 1911-yilda "Padarkush" dramasi yozdi.

U haqli ravishda o'zbek matbuoti, yangi pedagogikasiga asos qoyganlardan. Zero, "Zarafshon" gazetasi 1912-yilda Behbudiyni nashri maorif sohasida "vatanimizning birinchi qahramoni" deyishi bejiz emas.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, birinchi jahon urushi arafalaridayoq uning shu vaqtgacha bosilib chiqqan maqolalari soni 200 ga yaqin edi. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu maqolalarning aksariyati o'zbek xalqining yangi yo'nalishdagi milliy tafakkuri shakllanishida, hayotga, turmushga yangicha qarashlari, talablari tug'ilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. "Turkiston idorasi", "Turkistonda maktab jarida", "Ehtiyoji millat", "Ikki emas, to'rt til kerak" singari publitistik maqolalari ana shunday xususiyatlarga ega.

1909-1914-yillar oralig'ida yozilgan bu maqolalarida tezroq xalqning ko'zini ochish, el-yurt kamolotini oylash, madrasalarda ta'limning zamon talablaridan orqadaqolayotganlarini tanqid qilib, bu sohani xalq turmushini yuksaltirishga xizmat qiladigan darajaga ko'tarish uchun da'vat; millat ravnaqi; ishlab chiqarish va bevosita jamiyatning iqtisodiy ahvoliga faol ta'sir ko'rsatadigan ilmiy bilimlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish hamda ayni vaqtda, halollik va pokizalikka undovchi diniy ilmlardan ham voz kechmaslik, dinni mustahkamlash; turkiy tildan tashqari arab va fors tillari qatori rus tilini ham bilish zaruriyati singari davrning muhim muammolari ko'tariladi.

Yoshlarni Rusiya, Yevropaning markaziy shaharlariga, Arabiston va Turkiyaning mashhur oliy o'quv yurtlariga yuborib o'qitish kerak, deydi Behbudiy. Shundagina Turkiston qoloqlikdan qutila oladi.

Agar diqqat bilan e'tibor bersak, Behbudiy bundan salkam yuz yil avval aytgan bu fikrlar xuddi bugun aytilganday jaranglab turibdi. Zero, bu masalalar hozir ham o'zining dolzarbligini yo'qotgan emas.

Behbudiy uzoqni ko'ra biluvchi, xalq hayotini, dardini chuqur anglay oluvchi, uning og'irini yengil qilishni hayotining mazmuni deb bilgan arbob edi. Masalan, "Buxoro xonligiga sayohat" nomli publitistik maqolasida u kelgusida, shubhasiz, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Samarqand atrofidagi yerlarni o'zlashtirish kerakligini aytadi. Biroq buning uchun suv muammosini hal qilish kerak, Amudaryodan suv olib chiqish esa, bu masalani hal etishning eng maqbul yo'lidir, deydi u.

1906-yili "Xurshid" gazetasida Behbudiyning "Feleton" nomli maqolasi bosildi. Maqola muallifning shu davr Rusiya hayotidagi siyosiy ahvol va kurashni juda chuqur bilganini va ularga o'zining mustaqil munosabatini bildirgan siyosatchi va nazariyotchi bo'lganini ko'rsatadi.

Behbudiy Turkistondagi jadidchilik harakatining rahbaridir. U jadidlar dasturining asoslarini tuzdi va matbuotda e'lon qildi. Turkistonning istiqbolga erishish yo'lini ko'rsatishga intilgan bu yo'riq keng xalq ommasi, ayniqsa, taraqqiyparvar yoshlar dunyoqarashining shakllanishida katta rol oynaydi.

Yuqoridagi maqolasida u Rusiyadagi sotsial-demokratlarning dasturiga keskin tanqidiy fikr bildiradi. Bu partiya dasturi hayotda joriy etilgudek bo'lsa, dunyo xonavayron bo'lishi mumkin, deydi. Bizning esa, mustaqil o'z yo'limiz bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Shu maqolada muallifning, agar biz o'z manfaatlarimizni qattiqroq himoya qilmasak, yaqin yigirmis yil ichida ko'p oyoqosti bo'lishimiz ehtimol, degan mulohazalarga duch kelamiz.

Behbudiy haqiqatdan ham dono kishi edi. Zero, uning bashorati to'g'ri chiqqanini tarix ko'rsatdi.

Xalq erki, huquqi, mustaqilligi o'z-o'zidan emas, kurashda qo'lga kiritilishi mumkinligini Behbudiy yaxshi bilar edi. "Biz jonsizlik ko'rsatganda", - degan edi u 1917-yilning yozida yozilgan maqolasida, - muxtoriyat agarchi yuz sana so'ngra bo'lsun, bizga berilmaydur. Azbaski, "Haq olinur, berilmas".

Bu fikrlardan Behbudiyning qarashlari nechog'lik jur'atli bo'lganini sezish qiyin emas. Behbudiy Turkistonning chor istibdodidan qutilib chiqish va mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lida kurashganlar, bu kurashga da'vat etganlarning eng peshqadamlaridan biridir.

U 1917-yil Fevral inqilobini quvonch bilan kutib oldi – chor Rusiyasining zulmidan ozod bo'lamiz, deb umid qildi. Lekin bu inqilob ham, Oktabr inqilobi ham uning bu umidini puchga chiqardi.

1917-yil aprelida Umumturkiston musulmonlari qurultoyida u Turkistonni o'zini o'zi boshqaruvchi mustaqil davlatga aylantirish g'oyasini o'rtaga tashladi. O'sha yilning noyabridagi Umumturkiston musulmonlari IV qurultoyida esa, Turkiston muxtoriyati rahbariyatisaylandi.

Behbudiy halol siyosatchi va vijdoni toza arbob edi. Masalan, u mana shu qurultoy hay'atiga musulmon bo'lmagan kishilarning vakillari ham kirishi zarur, degan taklifni aytadi. Bu taklif qabul qilinadi. Qurultoyda "Turkistonda yashovchi milliy ozchilik huquqlari har tomonlama muhofaza etiladi", deb ta'kidlanadi.

Shu va shunga o'xshash odil va oqil fikrlar, maqsadlar bo'lishiga qaramay, mustabit tizimning kashshoflari tug'ilish jarayonidayoq mustaqillik uchun bo'lgan bu dastlabki intilishlarni chilparchin qilib tashladilar.

Behbudiy 1918-yilning o'rtalarida "Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi"ga maorif xalq komissari bo'lib tayinlandi. Turkistonning davlat tili

to'g'risidagi dekret loyihatini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi. Biroq bu tabarruk maqsad ham o'z vaqtida amalga oshmay qoldi.

Behbudiy qarashlarida, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilib kelayotgan eskicha urf-odatlarini, aqidalarni isloh qilish takliflari islom ahloqini mustahkamlash g'oyalari bilan chirmashib ketadi.

Xalqi, vatani uchun fidoyilarcha yashagan, mehnat qilgan Behbudiyning umri, hayoti ham mohiyat e'tibori bilan shu xalq, shu vatan uchun fido bo'ldi. U 1919-yilning bahorida Buxoro amirining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan hibsga olinadi va sho'roning ayg'oqchisi jadid sho'ro sotilgan degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi. "Agar bizning hayotimiz hurriyati va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz", degan edi Behbudiy vasiyatnomasida.

O'z davrining Fitrat, Cho'lpon, Ayniy singari san'atkorlari Behbudiy o'limiga marsiyalar bag'ishladilar.

Ayniy Behbudiya bag'ishlangan marsiyasida shunday deb yozgan edi:

Saning tarixi davroning, saning osori urfoning,

Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?

Vatan avlodi yot etdi, sani hurmatda shod etdi

Va lekin intiqomingni ololurmi, ololmasmu?

Ayrim she'riy marsiyalardan tashqari Behbudiya bag'ishlangan katta janrdagi asar ham paydo bo'ldi. Masalan, dramaturg Hojimurod bu alloma qatl etilishi voqeasining markazga qoygan holda "Maorif qurbonlari" nomli pesa yozdi.

Biroq, ko'p o'tmay, mudhish davrlar boshlandi. Behbudiya ashaddiy millatchi, sotsializm dushmani tamg'asi yopishtirildi. Uzoq yillar davomida uning

nomi salbiy ma'nolardagina tilga olindi. Mustaqillik davriga kelib Behbudiya adolatli, haqqoniy munosabat boshlandi. Uning o'zbek xalqi tarixidagi o'rni, nomi tiklandi. Badiiy asarlari, publitistik maqolalari chop etiladigan, ilmiy tadqiqotlarda hayoti ijodi xolis tadqiq etiladigan bo'ldi.

Behbudi hayoti va ijodi haqidagi ushbu mulohazalar ham ko'p yillardan so'ng davr sharofati tufayli paydo bo'lgan dastlabki mushohadalardan biridir. O'zbek xalqining bu buyuk farzandiga kelgusiga e'tibor yanada kuchayishi shubhasizdir.

“Padarkush” dramasi. Bu drama yozilgach (1911), uni nashr etish oson bo'lmadi. Yerli xalqni ezib, uning taraqqiy etishiga, o'z g'ururiniyng anglash, o'z milliy adabiyoti, tili, madaniyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilib kelgan chorizm, uning Turkistondagi mustabidlari bu asarni o'z vaqtida kitob holiday bosib chiqarishda yo'l qoymadilar. Agar matbuotda ilk bor „Turon“ ro'znomasida 1912-yilda bosildi.

Drama 1913-yilda kitob holidi o'zbek tilida nashr etildi, biroq uning muqovasida rus tilidagi; „Rusiyaning fransuz istibdodidan qutilishi va mashhur Borodino muhorabasi xotiralari yubileyga bag'ishlayman“ degan yozuv bor edi. Chor senzurasidan o'tish uchun muallif shunday qildi. Pesa tezlikda Turkistonning ko'plab shaharlarida mashhur bo'lib ketdi; Samarqand, Toshkent, Buxoro singari o'nga yaqin shaharga sahnaga oynaldi.

Dramaning o'qir ekanmiz, toshmurodning eski maktabga ham, yangi maktabga ham bormasligini bilib olamiz. Holbuki, u o'n olti yoshlar atrofida. Demak, takasal tang. Asarning ichiga chuqurroq kira borgan sari, aslida bolaning otaga, otaning bolaga o'zaro mos, bir-biriga mutanosib ekanini idrok etamiz.

Ota dunyoning jamiki izzatini faqat boylikda debtushunadi. axir odamlar o'qimishli kishidan, mulladan ko'ra o'qimagan bo'lsa hampuli ko'pni, boyni hurmat qiladiku, deydi u. Shuning uchun ham, uning fikricha o'ziga o'xshagan boylarni faqat musulmonlar emas, hatto o'ris va armanlar ham hurmat qiladi.

Drama Domulla timsoli berilgan. U boyning bu fikrlari qarshi chiqib, bolani albatta o'qitish zarur, degan fikrini aytadi. Xulosa chiqarsak bo'lmaydimi axir yigirma-o'ttiz yildan beri barcha yirik savdo ishlari yerni xalq emas, chetdan kelganlar qo'lida. Agar o'zimiz, bolalarimiz o'qigan savodli, ilmi bo'lsak edi, shu kuyga tushmasdik deydi Domulla. Lekin boy bu fikrlarini loaqal bir oylab ko'rish o'rniga, uning egasi ustidan tahqiromuz qiladi va „o'qiganning biri siz, yemoqqa noningiz yo'q” deb javob berdi. Bundan sakson yil avval aytilgan bu gaplar hozirgi zamondoshlarimizni ham oylashga unday oladi. Asardagi teran ishlangan, zamonaviy ahamiyati jihatidan hozir ham o'z qiymatini yo'qotmagan timsollardan biri Ziyoli obrazidir. „Ilm va hunarsiz xalqning boyligi yeri asbobi kundan-kun qo'lidan ketganidek, axloq va obroyi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur”.

Behbudiy shu Ziyoli tilidan Turkiston xalqi uchun ikki yo'nalishdagi olimlar zarur, degan fikrini ilgari suradi. Biri diniy yo'nalishdagi ulamolar bo'lib, ular xatibimom, mudarris, muftiy va boshqalardir. Bular xaloyiqning diniy va axloqiy ishlarini boshqaradi. Ular Turkiston va Buxoroda diniy ta'lim olgach, hatto rus tilini ham o'rganib so'ng Makka, Madina, Misr va Istambulda tahsilni davom ettirishlari kerak.

Ziyoli fikricha, yoshlarimiz gimnaziyalarni o'qib bitirganlaridan so'ng Peterburg va Moskva dirlfununlarida doktorlik, qonunchilik, injinerlik, sudyalik, ilmi sanoat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, ilmi muallimlik sohalarini o'zlashtirishlari lozim. Bu bilan kifoyalanib qolgay, bolalarimizni Farangiston, Amriqo, Istanbul dirlfununlariga ta'lim-tarbiya uchun yuborishimiz zarur. Ko'rinib turibdiki „Padarkush” dramasidagi bu g'oya muallifning yuqoridagi publitistik maqolalariga ilgari surilgan g'oyalariga ish va hamohangdir. Bu hol Behbudiy ijodidagi marifatparvarlik g'oyasi markaziy o'rinda turishni ko'rsatadi.

Ziyoli kuyunchaklik bilan aytgan yuqoridagi gapda Boy qanday munosabatga bo'ladi. U o'tirgan joyida bir tarafga og'ganlar xurrak ota boshlardi.

Mana bu dorning el, ulus haqida qayg'urib aytilgan dardman fikrlariga munosabati-yu, uning haqiqiy qiyofasi.

Bu kichkinagina manzaraga muallif katta mazmun sig'dirolgan. Uzundan-uzun dialoglarga aytilishi mumkin bo'lgan ma'noni dramaturg bir necha soniyali vaqtda bir kichik detaldayoq bera olgan.

Boyni o'z o'tli emas aslida o'g'lining shoshadoshi Tangiriqu'l o'ldiradi. Lekin bundan qat'iy nazar drama „Padarkush“ yangi „Ota qotili“ deb ataladi. Bu bilan muallif ota o'limi sababchisi o'g'ridagi norozilik, ilmsizlik jaholat, badxulq odamlardan hamroh orttirish demoqchi bo'ladi. Bundan tashqari Behbudi'y fikricha jamiyat tanazzulining boisi millat farzandlarini davr talab qilgan darajadagi kamolotga intilmasligidadir.

„Padarkush“ dramasi XX asr tongidagi o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Shakllanib kelayotgan yosh adiblarga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Qodiriy „Baxtsiz quyon“ dramasi Behbudi'yning „Padarkush“ asari tasirida yozganini o'zi aytgan edi.

„Padarkush“ dramasi ayrim kamchilikdan holi emas edi. Ayniqsa ayrim qahramondlar harakati, xarakteridagi dalillash san'ati ba'zi o'rinlarga kuchsiz. Xususan qotillik epizodi sun'iyroq.

Behbudi'y bu asarda adabiyotimizda birinchilardan bo'lib, vatanda yashab turib bevatan qilishi mumkin bo'lgan narsa tarbiyasizlik va ilmsizlikdir, deyilar ekan, bu erda gap qotillik bois uzoq o'lkalarga surgun qilinish va shundan Behbudi'y talqinida bu fikr anchagina tagzaminga ega ekanini sezib olish mumkin.